

PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILAR VALEOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Sardorxon Quvondiqov,

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
p.f.f.d.(PhD), professor*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim tizimida olib borilgan chuqur islohotlar tufayli oliy pedagogik ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan malakali professor pedagoglarning muntazam sur'atda o'z ustida malakasini oshirishga yo'naltirilgan ijodiy ish bilan shug'ullanishi, ilmiy faoliyatini jadallashtirish imkoniyatlari kengaytirilgani haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, valeologiya, nazariya, metodika, talaba, kompetentlig, o'qituvchilar, xulq-atvor, rivojlantirish, mexanizm, pedagogika, takomillashtirish.

Аннотация. В данной статье рассказывается о том, что в связи с глубокими реформами в системе образования квалифицированные профессорско-преподавательские работники, работающие в сфере высшего педагогического образования, в постоянном темпе занимаются творческой работой, направленной на повышение квалификации над собой, расширяются возможности для ускорения научной деятельности.

Ключевые слова: образование, валеология, теория, методика, ученик, компетентность, учителя, поведение, развитие, механизм, педагогика, совершенствование.

Abstract. This article describes that due to deep reforms in the education system, qualified teaching staff working in the field of higher pedagogical education are constantly engaged in creative work aimed at improving their skills, and opportunities for accelerating scientific activities are expanding.

Keywords: education, valeology, theory, methodology, student, competence, teacher, behavior, development, mechanism, pedagogy, improvement.

Kirish. Oliy ta'limning modernizatsiyalashishi bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash jarayoniga, tayyorlanayotgan pedagoglarning malakaviy saviyasiga nisbatan talablarni kuchaytirdi. Bo'lajak pedagoglar valeologik kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini yaratish va uni takomillashtirish muammosi yechimini topishga qaratilgan ilmiy metodologik, nazariy, uslubiy ishlar muntazam takomillashtirilmoqda. Bunday keng qamrovli vazifalarni amalga oshirishdagi asosiy ishlardan biri ustoz-pedagoglar uchun zarur bo'lgan, ya'ni ularning talabalar bilan ijodiy, ilmiy, uslubiy o'quv jarayonlarini olib borishlari uchun barcha shart-sharoitlarni vujudga keltirishdan iboratdir. Bu borada O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda "O'zbekistonda adolat nuqtai nazaridan, iqtisodiyot nuqtai nazaridan, ma'naviyat nuqtai nazaridan, ma'rifat nuqtai nazaridan ishongan kuchli muallimlar, ziyolilar" [27], – deganida ham qanchadan-qancha ma'no mujassam edi.

Oliy o'quv yurti o'quv-uslubiy jarayonlarining bosh maqsadini amalga oshirish, ya'ni yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun muhim ahamiyat kasb etadigan

masala pedagog-ustozlar, professor-o'qituvchilarning shaxsiy va malakaviy tayyorgarligi ham muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda valeologik ta'limni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yuzasidan pedagog olimlardan E.O.Turdiqulov, U.Turdiqulov, X.Norbo'taev, Sh.M.Kamolxo'jaev, Sh.Yunusova kabi olimlar [84, 87, 71, 52, 108] o'quvchilarga tabiiy fanlarni o'qitish asosida valeologik ta'limni berish masalalarini tadqiq etgan. R.X.Djuraev, A.S.To'xtaev, A.Ergashev, X.Tog'aeu, D.To'xliev va T.Saparov kabilar o'z tadqiqotlarida ekologiya tushunchasi, uning mazmuni, atrof-muhit va inson munosabatlari o'rganilgan. Talabalarda valeologik savodxonlikni rivojlantirish, ijtimoiy jamiyatdagi faol ishtiroki, ma'naviy merosimiz durdonalarini o'rganishning nazariy va amaliy muammolari M.M.Aliqulova, M.Allayarov, S.Mamashokirov, N.Hakimovlar tomonidan tadqiq qilingan. Valeologik madaniyat tushunchasi, o'quvchilarida valeologik madaniyatni samarali shakllantirish masalalari bo'yicha V.N.Sattorov, N.O'.Nishonova, A.R.Malikova, N.Sh.Bozorova, N.Isakulova hamda I.X.Ayubovalar tomonidan turli iqtisodiy, tabiiy, ijtimoiy aspektlar, valeologik ta'limning ijtimoiy-falsafiy jihatlariga oid tadqiqot ishlari olib borilgan.

O'zbekistonda pedagogika sohasida valeologik ta'limning rivojlanishi va taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan pedagog olim E.O.Turdiqulov tabiiy fanlar asosida o'quvchilarga valeologik ta'lim-tarbiyani hamda uning uzluksizligini ta'minlash yuzasidan qator tadqiqot ishlarini olib borgan. Uning asarlarida "Ekologiya", "Valeologik ta'lim va tarbiya" tushunchalariga keng mazmunda sharhlar berib o'tilgan. E.O.Turdiqulov yosh ta'lim oluvchilar ongida tabiatga mehr-muhabbat hisini shakllantirish va insonlar tabiiy zaxiralarsiz yashay olmasligini singdirishga oid fikrlarini ilmiy nuqtai nazardan asoslab bergan.

Xorijiy davlatlar olimlaridan amerikalik olim J.U.Ogbu bolalarni oilada, mikro sharoitlarda tarbiyalash jarayonida madaniyatlararo yoki guruhlararo taqqoslash asosida madaniy-valeologik kompetentlikni rivojlantirish g'oyasini ishlab chiqqan, Eindhoven texnologiya universiteti tadqiqotchi N.Roszen esa, valeologik kompetentlikni rivojlantirishda axloqiy motivlarning yaxlit tizimini yaratgan. U valeologik kompetentlik tushunchasini "Valeologik xulqni targ'ib qilishda tabiat va atrof-muhitga oid bilimlarga, valeologik xulq-atvor qobiliyatlariga ega bo'lishlikdir" [76], deb ta'riflashga harakat qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda pedagogika, valeologiya va ekologik ta'limga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning valeologik kompetentligini aniqlash maqsadida empirik kuzatishlar hamda sotsiologik so'rov natijalari o'rganildi. Olingan ma'lumotlar asosida valeologik kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinib, tegishli xulosalar ishlab chiqildi.

Tahlillar va natijalar. Pedagogikaga doir ilmiy adabiyotlarda “valeologik tarbiya” tushunchasi bilan birgalikda “valeologik kompetentlik” termini ham qo‘llaniladi. Ta’kidlashimiz joizki, tadqiqotimizda “valeologik kompetentlik” tushunchasidan foydalanilgan. Ushbu kategoriyalar tahliliga alohida to‘xtalamiz. Ba’zi hollarda ekologiya birinchi tushunchaning sinonimi sifatida keladi, ammo ekologiya ushbu jarayonning bosh maqsadini ifoda etadi va inson valeologik ongining mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Ekologiya – yun. “Oikos” – vatan, uy va “logis” – fan, ta’limot. “Ekologiya – birgalikda yashaydigan o‘zaro va tevarak-atrofdagi muhit bilan bo‘lgan munosabatini, shuningdek odam va biosfera o‘rtasidagi o‘zaro munosabat masalalarini o‘rganuvchi fan”, “Valeologik” so‘zi – ekologiyaga oid, u bilan bog‘liq degan ma’noni va “Kompetentlik” so‘zi esa – lotincha “competence” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi bevosita “layoqatli, munosib bo‘lmoq, qobiliyat” ma’nolarini ifodalaydi. “Faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”, mazmunini anglatadi. Shu o‘rinda kasbiy kompetentlik tushunchasiga ham to‘xtalib o‘tish joiz, bu – mutaxassisning o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga egaligi va ulardan amaliyotda yuqori darajada foydalanishidir. Yuqoridagi tahlillardan xulosa chiqarib, “Valeologik kompetentlik” tushunchasiga quyidagicha: **bo‘lajak pedagogning valeologik kompetentligi** – bu bo‘lajak o‘qituvchining o‘zlashtirgan ekopedagogik bilimlari, ko‘nikmalari, malakalari, e‘tiqodi, motivlari, qadriyatli mo‘ljallari, valeologik ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega shaxsiy sifatleri va ekopedagogik faoliyatning amaliy tajribasiga mos holda “odam – jamiyat – tabiat – ma’rifat” tizimida hatti-harakat qilish qobiliyatini belgilovchi integrativ fazilatidir, degan ta’rifni berishimiz mumkin.

Talabalar valeologik kompetentligi zamondoshlarimizning ma’naviy va amaliy tajribasiga tayanadi, shuningdek, mutaxassislarning uchinchi ming yillikda atrof-muhitning valeologik holatida sodir bo‘layotgan doimiy o‘zgarishlar haqidagi ilmiy asoslangan fikrlarini ham hisobga oladi. Ta’lim tizimi orqali olinayotgan ekologiyaga oid ma’lumotlar valeologik kompetentlikni rivojlantiruvchi muhim omillardan hisoblanadi va insonning tabiat bilan o‘zaro aloqasida, valeologik vaziyat mazmunini chuqur anglashida asosiy o‘rinni egallaydi. Shunday ekan, talabalarda valeologik kompetentlik rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, shuki, tabiat bilan munosabatlarning chuqurlashuvida, uyg‘unlashuvida, ya’ni tabiat va insonning aloqasi mavjud. Uning tabiiy resurslardan foydalanish faoliyati bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, yagona zanjirni tashkil qiladi.

Ekologiya mazmuniga doir masalalar inson ongidagi mavjud ijtimoiy holatlar, ya’ni atrof-muhitni bilish, qadriyatlarga amal qilish va psixologik shart-sharoitlar bilan bog‘liqdir. Shuningdek, insonga olamni, tabiatni shaxs faoliyati uchun zarurligini to‘liq holda tushunish imkoniyatini beradi, biosferada insonning o‘rni va uning hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy holatlarni ilmiy asosda, anglash, tushunish, unga o‘z

munosabatlarni bildirish imkoniyatini vujudga keltiradi. Bizning fikrimizcha, valeologik kompetentlik – talaba kelgusida o‘qituvchilik faoliyatida, balki valeologik bilimlardan amaliy faoliyatda, ta’lim-tarbiya jarayonida samarali foydalana olishining namoyon bo‘lishidir.

Bo‘lajak pedagog shaxsi tarbiyasi, uning valeologik kompetentligini rivojlantirish murakkab pedagogik jarayondir. Shaxs valeologik tarbiyasi hozirgi globallashuv davrida, g‘oyaviy xurujlar kuchaygan, yoshlar ongiga salbiy ta’sir etuvchi vositalar soni ko‘payib borayotgan bir sharoitda yanada murakkablashmoqda. Shuning uchun ham shaxs axloqiy, valeologik kompetentligini rivojlantirish, uning ma’naviyatini mavjud ilmiy, tarbiyaviy, uslubiy vositalar, ta’lim imkoniyatlari bilan mustahkamlash pedagogik jarayondagi muhim omillardan hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, insoniyat o‘z boshidan kechirayotgan global iqtisodiy inqiroz davrida, bo‘lajak pedagoglarning valeologik kompetentligini uzluksiz ta’lim imkoniyatlaridan samarali foydalanib rivojlantirish zaruriyati vujudga keldi, bundan kutilgan asosiy maqsad insonning atrof-muhitga ijobiy munosabatini kuchaytirish, natijada uning valeologik kompetentligini rivojlantirishga erishishdir.

Hozirgi davrdagi inson va tabiat munosabatlari orasidagi tolerant munosabatni, barcha insonlarda valeologik ongni rivojlantirish, ulardagi valeologik savodxonlik va madaniyatni oshirish, barqaror rivojlanish lozimligi tamoyillarini chuqur tushunishlari orqali erishish mumkin. Jahondagi va hududdagi, mintaqadagi valeologik vaziyat insonning tabiatga bo‘lgan xulqida o‘zgarishlar sodir bo‘lishini talab etmoqda. Hozirgi davrda yer sharida yashayotganlar, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faoliyat olib borayotganlar insonning biologik tur sifatidagi holati hamda boshqa valeologik tur vakillari bilan birgalikda yashash imkoniyatlarini anglashi orqali, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash uchun harakat qilishini taqozo etmoqda.

Oliy ta’limda bakalavrlar tayyorlashni tubdan takomillashtirish, har bir professor-o‘qituvchidan o‘z ilmiy tadqiqot faoliyatini hamda talabalar bilan olib boradigan valeologik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limiy-tarbiyaviy ishni yanada yuqori saviyaga ko‘tarishni talab qiladi. Yuqori malakali pedagoglar tayyorlash masalasi har bir pedagog ilmiy tadqiqot ishlarining jadallashtirilishini, yangi talablar asosida rivojlangan mamlakatlar darajasida tashkil qilinish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Ilmiy ishlar natijalarining, ekologiyaga, bo‘lajak pedagoglar valeologik kompetentligini rivojlantirishga doir xulosa va takliflarning amaliyotga joriy qilinishi, ushbu sohada o‘qitilayotgan pedagogika fanlariga oid darslik, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tayyorlaganligi va ularning talabalarga o‘rganish uchun tavsiya etilayotganligida namoyon bo‘ladi.

Globalashuvning oliy pedagogik ta’limga ta’siri va fanlararo ilmiy tadqiqot sohalarida xalqaro ilmiy hamkorlikning kengayib borayotganligi zamonaviy pedagogdan internet tizimini yaxshi bilishni, kompyuter texnologiyalarini o‘z faoliyatida, pedagogik

jarayonda, ilmiy ishlarida unumli foydalanishni talab qiladi. Har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda ekologiyaga doir, ilmiy axborotlarga boy taqdimot materiallarining namoyish etilishi, darslarning tarqatma materiallar bilan boyitilishi nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi. Talabalarning o'tilayotgan, ekologiyaga oid yangi o'quv materiallarini tez va to'liq o'rganib olishlarini ta'minlaydi. Bunday ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak mutaxassis pedagog sifatida rivojlanishi jadallashadi va valeologik kompetentlik qirralarining vujudga kelishi kuzatiladi. Innovatsion uzluksiz pedagogik ta'limda kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish bo'lajak pedagoqlarda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy masalalar mazmunini anglash, tushunish, ijtimoiy, iqtisodiy voqealarga nisbatan mustaqil xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Ustoz-pedagoqlarning o'quv jarayonida kompyuter texnologiyasidan samarali foydalanishi fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmualarning talablar darajasida tayyorlanishi ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori saviyada tashkil etilishiga imkon yaratadi. Valeologik mazmundagi o'quv-uslubiy materiallarning zamonaviy, yangi pedagogik texnologiyalar, keys-stadi (sase - aniq vaziyat, hodisa, stadi – o'qitish)lar bilan boyitish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ekologiyaga oid o'quv-uslubiy majmualarning elektron bazasi yaratilishi talabning ushbu materiallardan o'z vaqtida va unga kerak bo'lgan manzilda foydalanish imkoniyatini vujudga keltiradi. Ustoz-pedagoqning fan bo'yicha yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa adabiyotlar ro'yxatining yaratilishi bo'lajak pedagog uchun ushbu kurs fanlarini o'rganishda muhim manbalar rolini bajaradi.

Zamonaviy elektron pochta yordamida oliy ta'lim muassasalariga ekologiyaga doir yangi o'quv materiallarni tezkorlik bilan kiritish orqali bo'lajak pedagoqlarga o'quv-uslubiy materiallar manbasi yetkaziladi. Valeologik ta'limga oid fanlarni mustaqil o'rganishga tavsiya etilgan ekologiyaga doir materiallar, maxsus adabiyotlar bo'yicha metodik maslahatlar va uslubiy yordam ko'rsatish imkoniyatini o'z vaqtida vujudga keltiradi. Ta'kidlash lozimki, ushbu ijodiy faoliyat tufayli jahondagi yetakchi universitetlar olimlari bilan bevosita ilmiy muloqotga kirishish va valeologik bilimlarni takomillashtirishga qaratilgan ijodiy hamkorlik imkoniyatlari kengayadi. Kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanishda bo'lajak pedagoqlar uchun zarur bo'lgan fanlar bo'yicha valeologik kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ijodiy to'garaklarni tashkil qilishda, valeologik mazmundagi tadbirlarning qiziqarli va jonli o'tkazilishida ham muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy oliy pedagogik ta'limning muhim xususiyatlaridan biri ustoz, professor-pedagoqning kamtarligi, talabalar bilan o'zaro muloqotda ularga hurmat va e'tibor bilan munosabatda bo'lish, ular shaxsiga xos bo'lgan bilimga intilishlari, ba'zi hollarda valeologik muammolarni izohlashda yo'l qo'ygan kamchiliklarini pedagoqlarga xos vazminlik bilan fikr bildirish yoki uslubiy yo'naltirish muhimdir. Ustoz-pedagoqning bo'lajak pedagoqlar bilan muloqotida intellektual imkoniyatlarini alohida qayd etish, ekologiyaga oid qiziqtirayotgan masalalar bo'yicha yechimini topa olishlariga ishonitirish

usuli shogirdlarni mustaqil harakatlarini kuchaytiradi va o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini oshiradi. Muloqotlar ta'siri talabaning dastlabki ilmiy tadqiqot ishlarini boshlashiga zamin bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan qayd etish lozimki, bunday metodik usulning qo'llanilishi bo'lajak pedagoglarning mustaqil topshiriqlarni, fanni, valeologik muammoga oid mavzularga tegishli mustaqil ishlarni to'liq va mazmunli bajarilishi, fanlardan asosiy manbalarni o'zlashtirish imkoniyatini rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonida "Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, valeologik bilim va ma'rifat ziyosidan bahramand etish, vatanparvar, haqiqiy fuqaro sifatida yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak" [30]. Ta'limda ustoz-pedagog shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan zamonaviy talablar pedagog-ustozlarga mutaxassisligi bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy faoliyatga yuqori darajada tayyorgarlik va yuksak ma'naviy, ma'rifiy, axloqiy fazilatlarga ega bo'lish mas'uliyatlarini yuklaydi.

Hozirgi davrda ustoz-pedagog shaxsiga nisbatan muhim talablar belgilangan. Jumladan, pedagog jamiyatda, ijtimoiy hayotda amalga oshirilgan o'zgarishlarni, ekologiya bo'yicha, ya'ni atrof-muhit muhofazasiga doir olib borilayotgan islohotlarning ijtimoiy ahamiyati va mohiyatini anglab yetmog'i zarur. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarga o'z asosini topgan ma'lumotlarni bera olishi, eng so'ngi fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lishi lozim. Ustoz-pedagog o'z sohasi bo'yicha chuqur va puxta bilim egasi bo'lishi, tinimsiz izlanishi, pedagogika fani metodologiyasini puxta o'rganishi, bo'lajak pedagoglarning yosh hamda psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishi darkor.

Ta'limdagi islohotlar mazmuniga muvofiq ustoz-pedagog ta'lim-tarbiya jarayonida o'qitishning zamonaviy shakl, metod va vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatlariga hamda tashkilotchi, ijodkor va tashabbuskorlik qobiliyatlariga ega bo'lish bilan birga yuksak darajali kasbiy mahoratni o'zlashtirib olishi, shaxsiy hayotda, valeologik xabardorlik bo'yicha ham ibratli bo'lishlikni taqozo etadi.

Oliy ta'limda talabalar, bo'lajak pedagoglar orasida olib borilgan empirik kuzatishlar, sotsiologik so'rovlar natijalari shundan dalolat beradiki, o'tkazilayotgan darslar davomida ustoz-pedagogdan ravon, tushunarli, ilmiy asoslangan, mantiqan bir-birini to'ldiradigan so'z boyligi, nutq madaniyati bo'lishini ham talab qiladi. Ustoz-pedagogdan hozirgi davrda O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning maqsadlari, mohiyati va natijalariga doir materiallarni yaxshi o'zlashtirganligi, undan ta'lim-tarbiya jarayonida hamda ekologiyaga oid materiallardan tez, oson va samarali foydalanish imkoniyatlariga egaligi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak pedagoglarda valeologik kompetentlikni rivojlantirish mazmunidagi pedagogik mexanizmlarning muhim xususiyatlaridan yana biri, bitiruv malakaviy ishlariga ilmiy rahbarlik davri hisoblanadi. Ilmiy rahbarlar tomonidan bu jarayon davomida bo'lajak

pedagoglardan bitiruv malakaviy ishlarining mazmuni, qo'yilgan valeologik masalalar yechimi haqida mustaqil izlanish va fikrga ega bo'lish talab qilinadi. Bu ish davomida ustoz-pedagogning intellektual imkoniyatlari, ekologiyaga oid bilimi, tajribasi, muloqot madaniyati yorqin namoyon bo'ladi. Chunki talaba bilan muttasil ishlash, unga malakali ilmiy-uslubiy ko'rsatmalar, maslahatlar berish natijasidagina talablar darajasida yozilgan bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya etish mumkin. Ta'kidlash lozimki, ushbu hollarda bitiruv malakaviy ishi mavzusiga shu jumladan, ekologiyaga doir yangi adabiyotlar, internet resurslari turkumi haqida maxsus axborotga egaligi uning ilmiy ishlardagi faol ishtirokidan dalolat beradi.

Ta'limni modernizatsiyalash, oliy ta'limdagi islohotlarning keng miqyosda olib borilishi va ijtimoiy jamiyatni rivojlantirish davrida ustoz-pedagoglarning oliy ta'limdagi o'rnini muttasil oshirib borilishi natijasida yuqori malakali pedagog mutaxassislar tayyorlanishi va ularda valeologik kompetentlik rivojlanishida asosiy omillar hisoblanadi.

Valeologik masalalarning globallashuv jarayoni jamiyatning barcha jabhalariga jumladan, uzluksiz ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bunday ijtimoiy va iqtisodiy sharoitda inson, shaxs tarbiyasiga, bo'lajak pedagoglar valeologik kompetentligining rivojlanishiga alohida e'tibor berish, uning ilmiy asoslarini kuchaytirish, bevosita islohotlar rivoji hamda ijobiy natijalarga erishish bilan chambarchas bog'liqligiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Ta'limning barcha jabhalaridagi islohotlarda shaxs valeologik tarbiyasi va uning valeologik kompetentligini rivojlantirish masalasi turadi. Inson, tabiat va jamiyat munosabatlarning chigallashganligi tufayli, uning amaliy ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Globallashuv sharoitida inson o'zining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faoliyati bilan tevarak-atrofga, o'zi istiqomat qilayotgan muhitga antropogen ta'sir qilib, tabiat bilan o'zaro munosabatlarga kirishishni tezlashtirdi. Ushbu jarayonda fan va texnika taraqqiyoti yutuqlaridan, jamiyat rivojlanishida tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan innovatsion pedagogik faoliyatning mazmuniga e'tibor berilishi, tarbiyaviy ish natijalaridan unumli foydalanish zaruriyati vujudga kelmoqda. Ta'lim-tarbiyaga bunday yondashuv tabiiy resurslarning cheklanganligi, insonning tobora oshib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy iste'mol talablarini to'liq qondirish uchun valeologik qiyinchiliklarning ko'payishi va ularning ilmiy yechimini topish zarurati faollashdi.

Bo'lajak pedagog mutaxassis sifatida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, tarbiya ishlarining tashkil etilishida, ilmiy muammolar yechimida muhim o'rin egallaydi. Talabalarning bo'lajak oliy ma'lumotli pedagog ekanligini mutaxassislik fanlarini chuqur egallashi va valeologik bilimlarni mukammal o'zlashtirishi zarur. Ushbu jarayonning mutaxassis pedagogi, bo'lajak bakalavrlar faoliyati bilan aloqador. Ushbu aloqadorlik ularning valeologik ahamiyat kasb etuvchi bilimlar majmuasini va malakali pedagogik kasbini egallashlari zarurligini anglatadi. Bo'lajak pedagoglarda valeologik kompetentlikning rivojlanganligi, hududdagi valeologik ahvolning holatini, mohiyatini,

mazmunini tushuntira olishini, ilmiy asosda ushbu vaziyatning ijobiy ba'zi hollarda salbiy jihatlarini malakali mutaxassis sifatida o'quvchilar tafakkuriga singdirish qobiliyati, yuksak pedagogik malakasi va mahorati zarurligini taqozo etadi. Masalaning ta'lim-tarbiya amaliyoti bilan uzviy bog'liqlik tomoni bugungi mutaxassis pedagog, oliy ta'lim muassasasini tamomlagan bakalavr o'zi faoliyat olib borayotgan hudud o'quvchilari bilan ishlaydi va lokal valeologik vaziyat sharoitida mehnat qiladi hamda ijodiy yondashgan holda pedagogik faoliyat ko'rsatadi. Shunday ekan, talabdan talabalik davridayoq regiondagi, hududdagi valeologik ahvol hamda mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanishda zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinayotganligi haqida axborotga, zarur valeologik savodxonlikga ega bo'lmoqlikni talab etadi. Qolaversa, zamonaviy pedagog doimiy sur'atda mutaxassisligini, shu jumladan, maxsus valeologik bilimlarni chuqurlashtirish ustida muntazam ishlashi lozim.

Xulosa. Ta'kidlash lozimki, bo'lajak pedagoglar global valeologik jarayonlarning yurtimiz valeologik ahvoliga ta'sirini ilmiy axborotlar, turli maxsus ilmiy adabiyotlar, internet resurslari, ommaviy axborot vositalarining xabarlarini kabi manbalardan olinayotgan ma'lumotlar orqali bilib olishmoqda. Shunday ekan, bo'lajak pedagoglarni ekologiyaga oid so'ngi ma'lumotlar bilan tanishtirish uchun muhim o'rin tutadigan, pedagogika oliy o'quv yurtlarida mavjud bo'lgan ilmiy axborotlar markazi faoliyatini muttasil takomillashtirishni va ta'lim jarayonida ilmiy axborotlardan unumli foydalanishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2010.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son.
3. O'zbekiston Respublikasi "Valeologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2013-yil, № 255.
4. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2007-yil 3-yanvar, O'RQ-76-son. - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-dekabrda «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4760-sonli Farmoni. - lex.uz/docs/3121798
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5430-son Farmoni. // lex.uz/docs/3721649
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4749-sonli Farmoni. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019 y., 06/19/5892/4134-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni. - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm,

- ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi PF-5953-sonli Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.03.2020 y., 06/20/5975/0377-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi PF-5106-sonli Farmoni. // «Xalq so'zi» gazetasining 2017 yil 6 iyuldagi soni.
 11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.
 12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasida Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi”ni tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-4038-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-son.
 13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-oktyabrdagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-3956-sonli qarori. - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021 y., 07/21/76/1231-son.
 14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ- “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 3775-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son
 15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori. - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.06.2020 y., 07/20/4749/0758-son.
 16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tizimida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-131-son qarori. // lex.uz/docs/5861879
 17. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 19 oktyabrdagi “Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori» O'zbekiston Respublikasining davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 11-son buyrug'i. // lex.uz/docs/5701176
 18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 21-yanvardagi “Valeologik normativlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 14-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.11.2018 y., 09/18/949/2214-son.
 19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-avgustdagi «Istirohat bog'lari va yashil zonalarini tashkil etish metodologiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 671-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.11.2021 y., 09/21/694/1075-son.
 20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O'zbekiston Respublikasida valeologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 434-son qarori. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021 y., 09/21/320/0482-son.